

## TA'LIM TIZIMIDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARI HAMDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI

*Sarvinoz Po'latova Abdutolibovna*  
*Buxoro shahar 29-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim tizimida maktab amaliyotchi psixologlarining o'rni, ularning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi vazifalari, psixologik xizmatning ta'lim samaradorligiga ta'siri hamda zamonaviy maktab muhitida psixologik yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, psixologning diagnostik, korreksion, profilaktik va maslahat berish faoliyatlari hamda maktab jamoasi bilan hamkorlik mexanizmlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** maktab psixologi, ta'lim tizimi, psixologik xizmat, o'quvchi shaxsi, diagnostika, korreksiya, profilaktika, maslahat, pedagogik hamkorlik, motivatsiya.

### KIRISH

Ta'lim tizimida maktab amaliyotchi psixologlarining o'rni nihoyatda muhim bo'lib, ular o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini, balki ularning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlovchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. Maktab psixologi zamonaviy ta'lim muassasasida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning ichki imkoniyatlarini aniqlash va to'g'ri yo'naltirishda asosiy ko'makchilardan biridir. Shu sababli psixologik xizmat ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Maktab amaliyotchi psixologining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning psixologik holatini o'rganish va tahlil qilishdir. Bu jarayonda u turli diagnostik metodlar, testlar, kuzatuv va suhbatlardan foydalanadi. Olingan natijalar asosida o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari aniqlanadi. Bu esa o'qituvchilarga har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi yaxshilanadi. Psixologning yana bir muhim vazifasi o'quvchilarda uchraydigan psixologik muammolarni bartaraf etishdan iboratdir. O'smirlik davrida yuzaga keladigan emotsional beqarorlik, agressiv xulq, o'ziga ishonchsizlik yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar psixologik yordamni talab qiladi. Maktab psixologi korreksion ishlar orqali bunday muammolarni kamaytiradi va o'quvchining ijobiy rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Shuningdek, psixologik profilaktika ishlari ham katta ahamiyatga ega. Psixolog o'quvchilar o'rtasida stress, zo'ravonlik, nizolar va boshqa salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan treninglar, suhbatlar va tarbiyaviy tadbirlar o'tkazadi. Bu esa maktabda sog'lom psixologik muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Sog'lom muhit esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ularning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Maktab psixologi o'qituvchilar va ma'muriyat bilan ham yaqin hamkorlikda ishlaydi. O'qituvchilarga pedagogik jarayonda psixologik yondashuvni qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi, sinf jamoasidagi muhitni tahlil qiladi va zarur hollarda individual maslahatlar tashkil etadi. Ma'muriyat bilan hamkorlik esa maktabda psixologik xizmatni samarali tashkil etish, reja va dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan ishlash ham psixolog faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Psixolog ota-onalarga farzand tarbiyasi, o'smir psixologiyasi, oilaviy munosabatlar va ta'limdagi qiyinchiliklarni yengish bo'yicha maslahatlar beradi. Bu esa oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi va o'quvchining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar rivojlanishi psixologik xizmatga ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron testlar, onlayn maslahatlar va psixologik monitoring tizimlari psixolog ishini yanada samarali va tezkor qiladi. Biroq bu jarayonda maxfiylik va axborot xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, maktab amaliyotchi psixologi ta'lim tizimida muhim o'rin egallaydi. U o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi, uning qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda asosiy yordamchi hisoblanadi. Psixologik xizmatning to'g'ri yo'lga qo'yilishi maktabda sog'lom muhitni yaratadi va o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Psixologik xizmat ta'lim dargohida har bir shaxsning ham ma'nan ham jismonan komil inson sifatida ravnaq topishiga katta xizmat qiladi. Bu sohani ya'ni aynan psixologiyani ta'lim muassasalarida faol tarzda amalda yuritish va bu bo'yicha bir qancha interaktiv kollaboratsiyalar, tadbirlar o'tkazish yosh avlodning aqlan va ma'nan pozitiv va chuqur fikrlay olish qobiyatini o'stiradi.

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ko'maklashadi. Quyida ushbu mavzuga oid asosiy jihatlar yoritiladi:

Maktab psixologik statusi

Maktab psixologi ta'lim muassasasida muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarning psixologik holatini kuzatish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va muammolarni aniqlash bilan shug'ullanadi. Psixologning vazifalari orasida o'quvchilarning emotsional-hissiy holatini baholash, stress va xavotirlik darajasini aniqlash,

shuningdek, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kiradi.

Maktab amaliy psixologining huquq va majburiyatlari:

O'quvchilarning psixologik rivojlanishini kuzatish va baholash.

Emotsional-hissiy zo'riqishlar, xavotirlik darajasi yuqori va o'ziga ishonchi past bo'lgan bolalar uchun korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil etish. Yuqoridagi keltirilgan huquq va majburiyatlar asosida har bir ta'lim oluvchining yuksak kelajagi va tartibli, muvaffaqiyatga boy turmush tarzini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Maktablarda psixologik xizmati o'quvchilarni hissiy o'zgarishiga va emo'tsanal kuch olishga juda katta o'rniga ega. Ayniqsa, o'smirlar va o'spirinlarda bo'ladigan jismoniy va fiziologik o'zgarishlar ularning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. O'quvchilar o'zlari buni anglab yetishga qiynaladilar. Hozirgi o'smirlar o'mishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti singari maktablarda ham psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun to'siq bo'layotgan omillar bor. Masalan, maktab fanlariga psixologiyaga oid fan kiritilsa yoki psixolog uchun alohida soat ajratilsa. Shuning uchun psixolog psixodiagnostik ishlarni amalga oshirishda, psixologik trening mashg'ulotlarni o'tishda qaysidir fan mashg'ulotin qo'shishga imkon bo'sa. Maktabda qarama-qarshi jins vakillari bilan psixologik maslahat ishlarini olib borish ham murakkablik tug'durmasdi.

Tadqiqotlar va kuzatuvlar natijasida hozirgi kunda maktabdagi ko'plab keyslarni ko'ramiz-ki, ko'plab o'quvchilar juda ham jizzaki, asabiy va tez jaxlga berilib keyinchalik stressga tushishi va buning oqibatida esa jinoyatlar ham sodir bo'layotganining guvohi bo'lamiz. Aynan shu holatda agar o'z sohasining mukammal egasi bo'lgan maktab amaliy psixologlari zarur chora-tadbirlarni oldindan ko'rib, profilaktika va tushuntirish ishlarini muntazam olib borganida aynan shu kabi mudxish holatlar soni keskin kamaygan bo'lar edi.

Shu borada Geshtalt terapiyasining ahamiyati va foydali ta'siri haqida bir qancha mulohazalar keltirib o'tamiz. Geshtalt terapiyasi bolalarning o'z his-tuyg'ularini tan olishiga yordam beradi. Stressni engishda bolalar uchun o'zlarini tinglash va tushunish juda muhim. Ular "hozir va shu yerda" prinsipiga asoslangan holda o'zlarining joriy holatlariga etibor qaratadi. Geshtalt terapiyasi bolalarga ijtimoiy muhitda o'zlarini qulay his qilishni o'rgatadi. Masalan, sinfdoshlari bilan muloqot qilishda yoki o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatlarda ko'mak beradi.

Ushbu usul orqali bolalar stress sabablarini aniqlab, ularga nisbatan o‘z yondashuvlarini o‘zgartirishlari mumkin. Stressni kamaytirish uchun bolalar bilan oddiy nafas olish mashqlari yoki vizualizatsiya usullarini o‘tkazish Geshtalt terapiyasining asosiy tamoyillaridan biridir.

Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini rasm, qo‘g‘irchoqlar, yoki boshqa ijodiy vositalar orqali ifodalashlari mumkin. Bu ularga ichki hissiyotlarini anglash va stressni kamaytirishga yordam beradi. Bolalarni kichik guruhlariga ajratib, ularni o‘zaro muloqot qilishga undash orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiring. Bu Geshtalt terapiyasining "insonlararo aloqalarni rivojlantirish" tamoyiliga mos keladi.

Ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi o‘quvchilarning psixologik salomatligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Maktab psixologlari o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘maklashish, ularning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, shuningdek, psixologik muammolarni oldini olishda katta ahamiyatga ega. Amaliy psixologning professional holati va shaxsiy sifatlari uning faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Shu sababli, ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash zarur.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab amaliyotchi psixologlari ta‘lim tizimining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, ular o‘quvchilarning psixologik farovonligini ta‘minlash, o‘qish jarayonini optimallashtirish va muammoli holatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati natijasida maktabda sog‘lom psixologik muhit shakllanadi va ta‘lim sifati oshadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Z.T.Nishanova “Psixologik xizmat”. Toshkent, 2007
2. Isroilova, N. A. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS
3. MEXANIZMLARI. Вестник магистратуры, (1-2 (124)), 78-80.
4. Dauletova, G. M. (2022). O'SMIRLIK YOSHDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR. ХАБАРИШЫСЫ, 3, 81.
5. Umarov, T. M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT. Kokand
6. University Research Base, 489-494.
7. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. Darslik. “Ijod Press”, Toshkent 2019